

QADIMGI XORAZMNING ANTIK DAVRDAGI SHAHARLARI TARIXI (QO'RG'OSHINQAL'A MISOLIDA)

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o‘g‘li

Ma’mun-Universiteti nodavlat ta’lim muassasasi

“Tarix va psixologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: s_baxtiyarov96@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazmning antik davrdagi shaharlaridan biri hisoblangan Qo‘rg‘oshinqlа haqida so‘z yuritiladi. Qo‘rg‘oshinqlа haqida olimlarning tadqiqotlari mazmuni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm vohasi, Miletlik Gekatiy, Xorasmiya, antik davr, Baqtriya, Qo‘rg‘oshinqlа, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Ayozqal'a, Burliqal'a, Sug'd, S.P.Tolstov, Y.G'. G‘ulomov, proteyxizma, Katta Qirqqiz, pandus.

Xorazm vohasi inson yashagan qadimgi hududlardan birisi hisoblanadi. Xorazm hududi haqidagi ilk ma'lumotlar zardushtiylarning muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto” da va Behistun qoyalari yozuvida ham ma'lumotlar uchraydi [1, 6.10].

Antik davr mualliflaridan biri bo‘lgan Miletlik Gekatiy asarida ham Xorazm haqida ma'lumotlar mavjud. Uning asarida Xorazm nomi Xorasmiya shaklida uchraydi. U Xorasmiyani parfiyaliklardan sharqda joylashgan Xorasmiya viloyatidagi yagona shahar sifatida ta’kidlab o‘tgan [2].

Xorazm vohasi Turon past tekisligining markazida Qoraqum va Qizilqum cho‘llarining oralig‘ida, respublikamizning shimoli-g‘arbiy qismida, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo‘lib, Amudaryo keltirgan allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan madaniyat maskanlaridan biridir.

Xorazm vohasi antik davr shaharlari tarixi nihoyatda qiziqarli. Antik mualliflar asarlarida qadimgi Xorazm qal’alari to‘g‘risida deyarli ma'lumotlar uchramaydi. Baqtriya bilan Sug'd mudofaa inshootlari to‘g‘risida Aleksandr yurishilari tarixi bilan bog‘liq ma'lumotlarga ega bo‘lganimiz bilan, lekin Xorazmning antik davr shaharlari tarixi haqidagi ma'lumotlar bizga mavhumligicha qolmoqda [1, 6.10].

Mil. avv. V—IV asrlar bo‘sag‘asida, ahamoniylar davlati tarkibidan chiqqach, Xorazm jamiyatining urbanizatsiyalashuvi jarayoni boshlandi, ko‘plab shahar

markazlari (Bozorqal'a, Katta Oybo'yir, Hazorasp, Oqshaxonqal'a va boshqalar) yuzaga kela boshladi, uning madaniy mintaqasi chegarasi kengaydi. So'l sohilda, shimolda u Ustyurt jarligigacha, g'arbda — Sariqamish ko'li qirg'oqlarigacha, janubda — Zaunguzu Qoraqumigacha yetib bordi. Chegara qal'alar tizimini tashkil qiluvchi yagona istehkomlar zanjiri bunyod etildi [1, 6.71].

Shunday chegara qal'alardan biri qadimgi Xorazm hududida paydo bo'lgan Qo'rg'oshinqal'a hisoblanadi. Qo'rg'oshinqal'a himoya istehkomni hisoblanib, Xorazm hududining sharqiy chegara qismida qurilgan. Ushbu yodgorlik bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Yodgorlikda 1937-yilda S.P.Tolstov, Y.G. G'ulomov va E.A.Polyakovdan iborat arxealogiya guruhi qazishma ishlarini olib borganlar va topganlar [3, c.30]

Qal'aning shahriston burchaklari olam taraflariga yo'nalgan 132 x 89 m o'lchamdag'i to'g'ri burchak shaklida Qo'shdevor materik qatlam ustiga qurilgan va ayrim joylarda 14—16 m qalinlikda saqlanib qolgan. Tashqi devorning qalinligi asosida 2,35 m, ichkisiniki — 2—2,20 m. Otish yo'lagining eni 2,35 m. Tashqi devor asosga qarab 85° nishab qilib ko'tarilgan. Qal'a Devorning quyi qismi materikdan 1,52 m balandlikda paxsadan ko'tarilgan, keyin loy qorishmada xom g'isht (40-41 x40-41 x 10-11 sm) terilgan. G'ishtga bitta, ikkita parellel chiziq yoki kesishuvchi to'g'ri yoxud egri chizikdardan iborat tamg'a, hatto barmoq ham bosilgan [1, 6.48].

Qal'a devori uzun tomonda uchtadan, qisqa tomonda bittadan burj bilan kuchaytirilgan (burchak burjlari bundan mustasno). Ular to'g'ri burchakli va yarim oval shaklda ishlangan. Har bir devordagi burjlar oralig'i har xil. Shimoli-sharqiy devorda ular bir-biridan 27—37 m masofada, janubi-sharqiy devorda esa 6—31 m masofada joylashgan. Ularning eni 6,80—8,40 m bo'lib, 7,60—8 m turtib chiqqan [1, 6.49].

Burchaklarni himoya qilish uchun har xil kombinatsiyalardan foydalanilgan: shinaklar qiyalatib qo'yilgan, burjlar qo'shaloq va yakka qurilgan. Qal'a devorida, burjlarda shinaklar va darcha o'rirlari qoldirilgan. Qal'ada 700 ga yaqin shinak mavjudligi aniqlangan. Istehkomi mudofaa qilish uchun shuncha shinak yetarli bo'lgan [1, 6.49].

Kirish joyi janubi-sharqiy devorning o'rtasida bo'lib, to'g'ri burchak shaklidagi 10,90x 19,80 m o'lchamli peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan. Adashtirma yo'l devorlarida shinaklar qoldirilgan. Qal'ada qadimgi Xorazm mudofaa tizimiga xos elementlardan bo'lgan proteyxizmadan foydalanilgan. Qal'a har tarafidan (janubi-g'arbiy tarafidan tashqari) kvadrat shakldagi xom g'ishtdan ko'tarilgan proteyxizma

bilan o‘rab olingan. U qal’a devori chetidan 9—10 m qochib turadi. Qal’aning janubi-g‘arbida, proteyxizmadan uch metr masofada eni -5 m ga yaqin, chuqurligi hozir 1,50 m ga yaqin bo‘lgan xandaq bo‘lganligi aniqlandi. Proteyxizmadan foydalanish ayniqsa antik davrda keng qo‘llanilgan bo‘lib, bu holat Xorazmda XII – XIII asrgacha davom qilgan [1, 6.79].

S.P.Tolstov olib borgan tadqiqotlari davomida otish yo‘laklaridan hamda qazilgan shurfdan olingan ashayoviy materiallar orasida mil. avv. IV—III asrlarga oid yirik idishlarning parchalari borligini alohida qayd etib o‘tilgan. Shu davrga taalluqli yo‘lbars tasviri tushirilgan idish parchalari topilgan [4]


Strategiya nuqtai nazaridan muhim joyni egallagan Qo‘rg‘oshinqal’ a mil. avv. IV—III asrlarda yuzaga kelgan, aftidan, qadimgi Xorazm davlatining ichki hududlarini dasht qabilalarining shimoli-sharq tomonidan bo‘ladigan hujumidan himoya qilgan [1, 6.49].

S.P.Tolstov tadqiqotlarida ma’lum bo‘lishicha qadimgi Xorazmda har bir istehkomli inshoot dushman hujumi paytida atrofdagi qishloqlar aholisi uchun bospana va istiqomat qiladigan joy bo‘lishini mo‘ljallab qurilgan. Bunday istehkomsiz qishloq manzillar Bozorqal’a, Jonbosqal’a, Ayozqal’a, Burliqal’a, Qo‘rg‘oshinqal’ a atrofida yoyilib joylashganligi aniqlangan.

Qal’a mavjudligining ikkinchi bosqichida (I—III asrlar) adashtirma yo‘lga janubi-sharqdan kirilgan. Bu yo‘lning ichki bo‘shlig‘ida qum qatlami ustidan g‘isht to‘shalgan. Pandus barpo qilingan. Katta Qirqqiz kanalida suv yetishmasligi tufayli, aftidan, III—IV asrlar oxirida Qo‘rg‘oshinqal’ a va uning atrofidagi qishloqlar bo‘shab qolgan [5, c.109].

Qal’a janubiy-g‘arbiy tomonidan tashqari, har tomonidan to‘siq devori bilan o‘rab olingan. Qal’a, taxminlarga ko‘ra, Qadimgi Xorazm davlati ichki qismini dasht qabilalari bosqinidan himoya qilgan. Qal’aning nomi turkiy “qo‘rg‘oshin” so‘zidan olingan deb hisoblanadi va ushbu modda, taxminlarga ko‘ra, bu yerdan uzoq bo‘lmanan hudduddan qazib olingan [6]

Tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Qo‘rg‘oshinqal’ a mintaqasidagi qal’alarda olib borilgan tadqiqotlardan voha mudofaasi tashkil qilinganligi aniqlangan bo‘lsa, ularning istehkomlari va manzilgohlari tinch aloqalar rivoj topganidan dalolat beradi.



Qo‘rg‘oshinqal’ a rejasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ғайратдин Ходжаниязов. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Милоддан аввалги VI асрдан милодий IV асргача. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2007.
2. Пьянков И. В. Хорасмии Гекатая Милетского 2-3 ст. //ВДИ. № 2. М., “Наука” 1972
3. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опъгг историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ. 1948.
4. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.,-Л., АН СССР. 1948.
5. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент, Изд-во АН УзССР. 1957.
6. karakalpakstan.travel/kurgashin-kala/?lang=uz